

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA YO'L QO'YILADIGAN BA'ZI XATOLAR

Tangirova Farangiz Ulug'bek qizi

Samarqand viloyat chet tillari instituti talabasi

Sh.O.Mamayoqubova

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: *Ma'limki bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish barcha soha vakillarini bir xilda qamrab olmoqda. Va bugungi kunda sir emaski yetishib kelayotgan yosh kadrlardan talab qilinayotgan narsa bu xorijiy tillarni puxta o'rganishdir. Bugungi kunda Ingliz tili bu jahon tili deb tan olingan bo'lib, yurtimizda ushbu tilni o'rganish bo'yicha ko'plab imkoniyatlar yaratilgan. Xo'sh biz Ingliz tilini o'rganyotganda qanday xatolar qilamiz? Va qanday qiyinchiliklarga duch kelamiz? Hamda ularning yechimi haqida ushbu maqolada sizlar bilan Ingliz tilini o'rganishdagi o'z shaxsiy metodlarim bilan bo'lishaman.*

Kalit so'zlar: *faqatgina grammatikani o'rganish, musiqa eshitish, kinolar ko'rish, podcast eshitish, to'g'ri talaffuz qilish qoidalari, 2 soat dars qilish, video darsliklar, og'zaki nutq ustida ishlash, maqsadsiz harakat qilish 0 ga teng.*

Annotation: *It is known that today the study of foreign languages covers representatives of all fields in the same way. And today it is not a secret that what is demanded from the growing young personnel is the thorough study of foreign languages. Today, English is recognized as a world language, and many opportunities for learning this language have been created in our country. So what mistakes do we make when learning English? And what challenges do we face? And about their solution, I will share with you my personal methods of learning English in this article.*

Key words: *only learning grammar, listening to music, watching movies, listening to podcasts, correct pronunciation rules, 2 hours of lessons, video tutorials, working on speaking, aimless movement is 0.*

Аннотация: *Известно, что сегодня изучение иностранных языков одинаково охватывает представителей всех сфер. И сегодня не секрет, что от подрастающих молодых кадров требуется тщательное изучение иностранных языков. Сегодня английский признан мировым языком, и в нашей стране создано множество возможностей для изучения этого языка. Итак, какие ошибки мы допускаем при изучении английского языка? И с какими проблемами мы сталкиваемся? А об их решении я поделюсь с вами своими личными методами изучения английского в этой статье.*

Ключевые слова: *только изучение грамматики, прослушивание музыки, просмотр фильмов, прослушивание подкастов, правила правильного произношения, 2 часа занятий, видеоуроки, работа над разговорной речью, бесцельное движение – 0.*

Inson nimanidir o'rganyotganda unda shu masala yuzasidan ko'zlagan maqsadi bo'ladi. Va o'sha maqsad o'quvchiga motivatsiya berib, ko'zlagan maqsadiga tezroq yetishga turtki beradi. Deylik biz ingliz tilini o'rganishni asosiy maqsadimiz qilib oldik. Va nima uchun?

Ma'lumki bugungi kunda Ingliz tili bugungi kunda dunyo tan olgan jahon tillaridan biri hisoblanadi. Va bu til dunyo bo'yicha hind, ispan so'ngra ingliz tili keng tarqalgan. Xo'sh biz Ingliz tilini o'rganyotganda qanday xatolarga yo'l qo'yamiz? Asosiy o'rinda mas'uliyatli bo'lish talab etiladi. Inson mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi kerak bu ayniqsa yaxshi ustoz topishi va o'zi javobgarlikni olib natija uchun harakat qilishi kerak. Inson o'z hayoti va javobgarlikni o'z zimmasiga olsa u to'laqonli va kuchli hayot kechira boshlaydi. [18-bet]. Ushbu maqolada til o'rganishning rivojlangan usullari va tajribali tilshunoslar va o'zimning shaxsiy tajribamdan kelib chiqib Ingliz tilini o'rganishda uchratadigan ba'zi xatilar haqida ma'lumot beraman.

To'liq grammatika bilan band bo'lib qolish. Faqatgina grammatikani o'rganish bu Ingliz tilini zur o'rganib bo'ladi degani emas, grammatika til urganish uchun juda zarur ammo bu bizga samarali o'rganishga to'liq yordam bermaydi. Aksincha sizni buni uzluksiz o'rganish natijasida siz og'zaki va eshitish qobiliyatingiz rivojlanmay qoladi. Sababi Ingliz tili faqatgina grammatikadan iborat emas. Sizga yordam berishi mumkin har xil musiqalar tinglash, Inglizcha kinolar ko'rish bunda o'ylaymanki sizga "EXTRA" Angliya kinosi yordam beradi. Bu kino Ingliz tili grammatikasini o'rganyotganlar uchun subtitli ham bor va juda oddiy so'zlardan tashkil topgan. Grammatikani o'rganyotganda podkastlar samarali uslub hisoblanadi. Bunda siz yodlayotgan yoki endi uchratmoqchi bo'lgan so'zlaringizni to'g'ri talaffuz qilish qoidalarini ko'rib o'tasiz. Yo'l qo'yiladigan yana bir hatolardan biri bu yetarlicha vaqt ajratmaslik, faqat o'qituvchi bergan vazifalarni bajarish bu til o'rganishda o'stirmaydigan narsa deb hisoblayman. Har qanday til uchun o'quvchi bir kunda kamida 2 soat vaqtini sarflash kerak. Mustaqil you tube dan o'sha mavzuga aloqador video darsliklar yoki xorijiy speakerlardan bu mavzu bo'yicha berilgan maslahatlardan foydalanish. Ingliz tilini o'rganish jarayonida yana bir kuzatiladigan hodisa bu --Feelings and embarrassment uyalish hodisasi. Ingliz tilini o'rganyotgan bo'lsangiz va siz bu tilda gapirishga uyalishingiz kerak emas. Uyalish bu qobiliyatingizni namoyon qilib bermaydi. Aksincha bu holat sizning og'zaki nutqingizni rivojlanmay qolishiga olib kelishi mumkin. O'rganuvchi qanchalik ko'p og'zaki nutq ustida ishlasa bu jarayon davomida foydali bo'lib, IELTS imtixonida ham u uchun asqotadi.

Ingliz tilini endi boshlab o'rganyotgan paytda qilayotgan xatolar sizning xohishingizni sindirib qo'yishi kerak emas, aksincha u sizning yanada olg'a intilishingizga kuch bo'lishi kerak. Hamma ham hatto qiladi va bundan faqat to'g'ri xulosa chiqarish kerak. Yana bir katta hatolardan biri o'zbekcha fikrlash, ingliz tilini o'rganyapsizmi Inglizlardek fikrlang. Harakat qiling tushunmasangizda inglizcha

kitoblar o'qing va tushunishga harakat qiling. Bu sizning fikrlashingizga ham yaxshi ta'sir qiladi. Nima haqida ko'p o'ylasangiz sizning shaxsiyatingizdagi asl dunyoqarashingiz ham shunga yarasha o'sadi. Siz o'z istiqbolingizni oldini olishingiz mumkin.[4-bet].

Yillab vaqt sarflash va foydasiz natija bu Ingliz tilini o'rganishdan maqsad bo'lishi kerakligini bildiradi. Har qanday ishni boshlashdan oldin undan ko'zlagan maqsad bo'lishi kerak. Maqsadsiz harakat 0 ga teng degan gap bor xalqimizda. Xop endi Ingliz tilini o'rganyotganingizga asosiy e'tibor qilinishi kerak bo'lgan yana bir masala bu talaffuzdir. Ma'lumki Ingliz tilida "pronunciations" asosiy rol o'ynaydi va bunga ko'pchilik yangi o'rganyotganlar e'tibor qilishmaydi natijada bu ingliz tilida so'zlashyotgan paytimizda har xil qiyinchiliklarga olib keladi. Ingliz tilida britiancha va amerikancha talaffuzlari bor. Biz britiancha ingliz tilini o'rganamiz va bunda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish muhim qismlardan biri sanaladi. Lug'at yodlayotgan paytingizda harakat qilingki uni talaffuzi bilan to'g'ri yodlashga va o'sha so'zlarning talaffuz me'yorlarini eslab qolishga harakat qiling. Shuningdek, nafaqat ingliz tilini o'rganyotganda balki barcha barcha tillarni o'rganyotganda yangi so'zlarni yodlash va ularni eslab qolish muommosi. Bugungi kunda lug'atlar bilan ishlash va ularni mustahkamlash uchun internet sahifalarida ilovalar ochilgan. Masalan, Quiz let--- bu ajoyib offline o'yin. Statistika sifatida qaralishicha butun dunyoda yoshlar tillarni o'rganish jarayonida yangi so'zlarni yodlashga qiynalishar ekan. Adabiy Ingliz tilida qariyb 600000 so'z mavjud. Sinonim so'zlar soni bo'yicha ham birinchi o'rin Ingliz tiliga tegishli. So'zlarni yodlayotgan paytingizda o'sha so'zning aynan shu ma'nosini emas, balki o'rganilayotgan so'zning ingliz tilidagi izohi bilan birga o'rganish eslab qolishni va so'zlardan keng miqyosda foydalanishga yordam beradi.

Mashhur olim Krashe nazariyasiga asoslanib, ingliz tili yoxud tillarni o'rganishda u tilning Grammatik xususiyatlari va ushbu tillarning nazariyalarini mukammal bilish shart emas, siz ingliz tilida axborotlar ko'rish va internet vositalaridan inglizcha foydalanish va kitoblar o'qish bilan mustahkamlashingiz mumkin. Asosiysi dangasalikdan qochish va so'zlashishdan uyalmaslik hamda o'z ustida mustaqil ishlash lozim. Shu bilan siz ingliz tilini o'rganyotganingizda qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib o'tasiz.

REFERENCES:

1. Z.J. Bozorova "Ingliz tilini o'rganishda keng tarqalgan xatolar". Maqola
2. DR. Carols . S.Dweck " Mindset"2017(5)
3. Valeriy Sinelnikov. "Niyatning kuchi" Firuz Safarov tarjimasi 2015 (18)
4. Marjona. "Ingliz tilini o'rganishdagi asosiy xatolar" {DATA o'quv markazining ingliz tili kurslari].
5. M.T Irisqulov. "Tilshunoslikka kirish"

6. Sh.O.Mamayoqubova. “Pedagogical conditions of professional development of higher Educational establishment teacher” Xalqaro so‘z san‘ati jurnali. ISSN 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. 2022 5 son, 48 p
7. Dunyo tillari haqida qiziqarli faktlar (google ma‘lumoti).
8. M.F.Ashirova. “ Til o‘qitishning zamonaviy metodlari haqida ma‘lumot”.Maqola